Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
<i>N. Sh. Djumaniyazova</i>	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
<i>Nazarova Mohinur Atxam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
<i>Nishonova Durdona Olimjon qizi</i>	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
<i>Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna</i>	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
<i>Otahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
<i>Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
<i>Qurbonova Asal Dilshod qizi</i>	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
<i>Safarova Madina Azamat qizi</i>	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
<i>Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
<i>Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi</i>	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
<i>Sherov Dilshod Reyimberganovich</i>	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
<i>Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi</i>	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
<i>Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
<i>Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
<i>Xayitov Jonibek Xolboboyevich</i>	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
<i>Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna</i>	

INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MULOQOT QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi

Navoiy shahar politexnikumi, o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot (kommunikativ) qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Muloqotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining mohiyati hamda ularning o'quvchilarda til kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, dars jarayonida samarali muloqot muhitini yaratish bo'yicha nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, kommunikativ yondashuv, muloqot kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, didaktik asoslar, interfaol metodlar.

Abstract: This article highlights the theoretical foundations of developing the communicative abilities of primary school students in English language education. The essence of communication-oriented teaching technologies and their role in shaping students' language competencies are analyzed. In addition, considering the age and psychological characteristics of primary school students, the article provides theoretical conclusions and practical recommendations for creating an effective communicative environment in the classroom.

Key words: English language, communicative approach, communicative competence, primary education, didactic foundations, interactive methods.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы развития коммуникативных способностей учеников начальных классов в процессе обучения английскому языку. Анализируется сущность коммуникативно-ориентированных образовательных технологий и их роль в формировании языковых компетенций у учащихся. Кроме того, с учетом возрастных и психологических особенностей младших школьников представлены теоретические выводы и практические рекомендации по созданию эффективной коммуникативной среды на уроках.

Ключевые слова: английский язык, коммуникативный подход, коммуникативная компетенция, начальное образование, дидактические основы, интерактивные методы.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy til, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoni o'quvchilarda nafaqat grammatik bilim, balki real muloqot qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda bu jarayon yanada muhim, chunki aynan shu bosqichda bolalarda nutqiy faollik, tilga qiziqish va muloqotga kirishish ehtiyoji shakllanadi.

Ingliz tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga, savol berish va javob qaytarishga o'rganadilar. Bu esa ularning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik rivojlantirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan qabul qilingan "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni rivojlantirish konsepsiyasi"da chet tillarini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayonida kommunikativ metodlarni keng joriy etish hamda o'quvchilarning amaliy nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Bugungi kunda ingliz tili o'qitish tizimida an'anaviy yod olishga asoslangan yondashuv o'z o'rnini asta-sekin kommunikativ yondashuvga bo'shatmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchini markazga qo'yadi, uning nutqiy faolligini oshirish, muloqot jarayonida o'z fikrini ifoda etish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini uyg'un shakllantirishni maqsad qiladi.



Xalqaro miqyosda D. Hymes, M. Halliday, W. Littlewood, J. Richards kabi olimlarning ishlari kommunikativ kompetensiya konsepsiyasining nazariy asoslarini yaratgan. Ularning fikricha, til o'rganishning asosiy maqsadi – o'quvchini til orqali muloqot qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir.

O'zbek tadqiqotchilari orasida Sh. Shodmonova, N. Xoshimova, G. O'razayeva, M. G'afforova, M. Abduqodirovalarning tadqiqotlarida esa boshlang'ich ta'lim bosqichida chet tilini o'qitishning o'ziga xos jihatlari, yosh psixologiyasiga mos metodlar, o'yinli va interfaol mashg'ulotlarning ahamiyati yoritilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tili o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash – ularning muloqot qobiliyatini rivojlantirish, o'z fikrini erkin ifodalash, suhbatdoshni tinglay olish va javob qaytarish malakasini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Aynan shu jihatdan boshlang'ich bosqich o'quvchilari bilan ishlashda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki muloqot muhitini tashkil etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tavsiyalariga ko'ra, til o'rganishning barcha bosqichlarida, jumladan boshlang'ich ta'limda ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish markaziy o'rinni egallaydi. Bu xalqaro tajriba O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, ingliz tili darslarida muloqot qobiliyatini rivojlantirish orqali o'quvchilarni faol, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga erishish mumkin. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni qo'llashning didaktik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar (Hymes, Halliday, Littlewood, Sh. Shodmonova, N. Xoshimova va boshqalar) tomonidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari chuqur o'rganilgan.

Mavjud adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kommunikativ yondashuv o'quvchini markazga qo'yadi va uning shaxsiy tajribasi, ehtiyoji hamda nutqiy faolligini inobatga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun esa vizual, o'yinli va interfaol usullar orqali muloqot muhitini yaratish samarali natija beradi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tili o'qitishda muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar (dialoglar, rolli o'yinlar, situatsion mashqlar) o'quvchilarni faol fikrlashga, hamkorlikda ishlashga va o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatadi.

Kommunikativ yondashuv va uning boshlang'ich ta'limdagi tatbiqi bugungi til ta'limi tadqiqotlarining markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar CEFR va kommunikativ kompetensiya konsepsiyalarini asos qilib, til o'rganish jarayonida nutqiy (og'zaki) faoliyatga yo'naltirilgan metodlarning ustunligini ta'kidlaydi: til – ijtimoiy vosita sifatida qabul qilinib, darslar mantiqan kommunikativ vazifalar atrofida tashkil etilishi lozim. Bu nuqtai nazar bir qator so'nggi maqolalarda ham tasdiqlangan (masalan, MDPI jurnalidagi tizimli yondashuv va kommunikativ kompetensiya tadqiqotlari).

Interaktiv va task-based yondashuvlar (vazifa asosida o'qitish) boshlang'ich sinflarda og'zaki nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi bir necha so'nggi maqolalarda qayd etilgan. Masalan, 2024–2025-yillarda e'lon qilingan tadqiqotlar darslarda 7 bosqichli yoki siklik og'zaki o'qitish modellari hamda task-based mashqlarni qo'llash orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi va muloqotga ishtiroqlarining oshganini bildiradi. Bu ishlar CLT (Communicative Language Teaching) tamoyillarini amaliy usulga aylantirishga xizmat qiladi.

Gamifikatsiya va game-based metodlar ham boshlang'ich ta'limda motivatsiya va ishtirokni oshirishda keng tadqiq etilmoqda, lekin natijalar aralash: ba'zi tadqiqotlar (mahalliy va mintaqaviy) gamifikatsiya yordamida og'zaki nutqqa kirishish va qatnashuv oshganini ko'rsatgan, boshqalar esa umumiy o'quv natijalariga ijobiy ta'sirni yetarli darajada barqaror isbotlamagan (so'nggi meta-tahlillar va ko'rib chiqishlar gamifikatsiya effektiga nisbatan ehtiyotkorlikni tavsiya qiladi). Shu sababli gamifikatsiya elementlarini pedagogik maqsad bilan aniq strukturalashtirish zarur. ^[9]

Mintaqaviy (Markaziy Osiyo va O'zbekiston) tadqiqotlari so'nggi yillarda ko'paydi. O'zbekiston va qo'shni mamlakatlarda nashr etilgan ishlar interaktiv metodlar, inkluziv yondashuv, darslik tarkibini 4K (kritik fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, kreativlik) modeli asosida tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Mahalliy tadqiqotlar ko'pincha eksperimental dizaynlar (nazorat va eksperimental guruhlar) va amaliy dars misollariga tayanadi hamda interaktiv va o'yinli metodlarning og'zaki nutq va muloqotga ijobiy ta'sirini bildiradi. Shu bilan birga, ularning ko'pchiligida metodik qo'llanma va darsliklardagi kommunikativ vazifalar miqdori va sifati yetarli emasligi, o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi zarurligi qayd etilgan. Bu xulosa mahalliy adabiyot tahlilida aniq namoyon bo'lgan. ^[3]

Receptiv ko'nikmalar (listening, reading) va produktiv ko'nikmalarning (speaking, writing) integratsiyalashgan rivojlanishi ham so'nggi tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, reading (o'qish) ni rivojlantirish uchun pre-reading, while-reading va post-reading texnikalarining munosib qo'llanilishi ayniqsa

boshlang'ich sinflarda samaradorlikni oshirishi aniqlangan (mahalliy tadqiqotlar, 2024–2025). Shu bilan birga, tinglash va gapirishga yetarlicha e'tibor qaratilmasa, o'quvchining umumiy kommunikativ kompetensiyasi to'liq shakllanmaydi. ^[4]

Pandemiya davrining ta'siri ham sohada yaqinda e'tiborni tortgan mavzu: masofaviy ta'lim va cheklovlar bolalarning boshlang'ich bosqichdagi ijtimoiy-muloqot va og'zaki ko'nikmalariga ta'sir ko'rsatgani haqida xalqaro hisobotlar mavjud (masalan, Ofsted hisobotlari va bir qancha tahlillar). Bu kontekst o'qituvchilardan darsni muloqotga yo'naltirilgan holatda qayta loyihalashni talab qilmoqda. O'zbekiston sharoitida ham pandemiya tajribasi dars metodikasini moslashuvchan qilish va qo'shimcha muloqot amaliyotlarini joriy etish zaruriyatini ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqotning metodologik asosi sifatida nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish va pedagogik kuzatuv usullariga tayanilgan. Mazkur usullar orqali ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot (kommunikativ) qobiliyatini shakllantirish jarayoni turli metodik yondashuvlar nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini kommunikativ yondashuv konsepsiyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli tashkil etadi.

Tadqiqotda kommunikativ yondashuv nazariyasiga tayangan holda, ingliz tili ta'limida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning didaktik asoslari, metodik shart-sharoitlari va ta'lim texnologiyalari tizimli o'rganildi. Nazariy tahlil jarayonida o'quvchilarning muloqotga kirishish ehtiyoji, nutqiy faoliyat turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ning o'zaro integratsiyasi hamda darsdagi kommunikativ vaziyatlarning samarali tashkil etilishi o'rganildi.

Shuningdek, qiyosiy o'rganish metodi orqali mahalliy va xorijiy metodikalardagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, ingliz tili o'qitish amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng samarali interfaol metodlar (rolli o'yinlar, juftlikda ishlash, guruhli muloqot, "dialog mashqlari", "information gap", "role play" texnikalari) tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv orqali esa mavjud dars jarayonlarida o'quvchilarning muloqot faoliyati, o'zaro hamkorligi, savol-javob va fikr almashish darajasi nazariy jihatdan baholandi.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar ingliz tili darslarida kommunikativ va interfaol metodlar tizimli, izchil hamda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda qo'llanilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida fikr bildirish, so'zlashuv jarayonida faol ishtirok etish hamda ijtimoiy nutqiy kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlar asosiy yo'nalish sifatida qabul qilindi:

1. **Kommunikativ yondashuv** – tilni o'rganish jarayonini real muloqot sharoitlariga yaqinlashtirish, o'quvchilarda nutqiy faoliyatni amaliy shaklda rivojlantirish;
2. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – har bir o'quvchining individual ehtiyoji va psixologik imkoniyatlarini inobatga olish;
3. **Integrativ yondashuv** – ingliz tili ta'limini boshqa fanlar, o'yin va ijodiy faoliyatlar bilan bog'lab, o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirish;
4. **Konstruktivistik yondashuv** – o'quvchilarning mustaqil o'rganish, fikr bildirish va ijtimoiy muloqotga kirishish kompetensiyasini shakllantirish.

Natijada nazariy tahlil asosida aniqlanishicha, ingliz tili darslarida muloqotga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini izchil qo'llash orqali o'quvchilarda:

- tilni amaliy qo'llashga bo'lgan motivatsiya kuchayadi;
- so'z boyligi, talaffuz madaniyati va nutqiy faollik ortadi;
- hamkorlikda ishlash, tinglash va javob berish ko'nikmalari shakllanadi;
- ijtimoiy muloqotda ishtirok etish va o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyati rivojlanadi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy jihatdan asoslangan holda, boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish jarayonini kommunikativ va interfaol tamoyillar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning nazariy tahlil va ilmiy faraz asosida olib borilgan natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili darslarida kommunikativ va interfaol metodlarni tizimli qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faolligini oshirish, so'z boyligini kengaytirish hamda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo'la oladi.

- *Birinchidan*, nazariy tahlil natijalariga ko'ra, boshlang'ich ta'limda muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quvchilarni tilni o'rganish jarayonida faol ishtirok etishga jalb etish zarur. Passiv eshituvchi emas, balki faol muloqotchi sifatida qatnashuvchi o'quvchilar tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Shu bois ingliz tili darslarida o'qituvchi tomonidan yaratiladigan kommunikativ muhit, real hayotiy vaziyatlarga yaqin mashqlar, rolli o'yinlar va dialogik mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.
- *Ikkinchidan*, kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning so'zlashuv ko'nikmalari shakllanishi nafaqat til bilimlarini, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishni ham ta'minlaydi. Muloqot faoliyatida o'quvchilar bir-birini tinglash, fikrini ifodalash, javob berish, muomala madaniyatiga rioya qilish kabi ijtimoiy fazilatlarini egallaydi. Bu esa ingliz tili darslarining tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi.
- *Uchinchidan*, nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar – "Pair work", "Group discussion", "Role play", "Information gap", "Find someone who", "Guessing games" kabi faoliyat turlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, til vositalarini amalda qo'llashga va o'z nutqini tabiiy shaklda rivojlantirishga yo'naltiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning psixologik to'siqlarini kamaytirib, dars jarayonini jonlantiradi, ularni ingliz tilida muloqot qilishga ruhlantiradi.
- *To'rtinchidan*, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyili asosida o'quvchilarning individual nutqiy imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olish orqali har bir bola o'z darajasida muvaffaqiyat hissini his etadi. Bu esa o'quvchilarning o'ziga ishonchini oshiradi, tilda erkin so'zlashish motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Nazariy modelashtirish natijasida aniqlanishicha, ingliz tili darslarida kommunikativ metodlarni tizimli qo'llash quyidagi kutilgan natijalarga olib keladi:

- o'quvchilarning nutqiy faolligi va fikr bildirish darajasi oshadi;
- tilni real muloqot vositasi sifatida qo'llash ko'nikmasi shakllanadi;
- tinglab tushunish va javob qaytarish malakalari mustahkamlanadi;
- ijtimoiy-emotsional muloqot (hamkorlik, o'zaro hurmat, tinglash madaniyati) rivojlanadi;
- o'quvchilarning ijodiy fikrlash va muammoni muloqot orqali hal etish qobiliyatlari kuchayadi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars jarayonida vizual va eshtiladigan ko'rgazmali vositalar (rasmlar, videolar, kartalar, audio materiallar)dan foydalanish, madaniyatlarga muloqot elementlarini kiritish (masalan, oddiy inglizcha salomlashuv, tabrik, tanishuv vaziyatlari) ularning tilga bo'lgan tabiiy ehtiyojini kuchaytiradi.

Muhokama jarayonida shunday xulosa qilindi: agar ingliz tili darslari kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilsa, o'quvchilar uchun til o'rganish jarayoni sun'iy emas, balki tabiiy muloqot ehtiyojiga aylanishi mumkin. Bu esa til o'rganishning eng muhim sharti – muloqot motivatsiyasini shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqotning nazariy natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'qituvchi:

- darsni muloqotga yo'naltirilgan tarzda loyihalashi;
- o'quvchilarni faollikka undovchi topshiriqlarni tanlashi;
- interfaol o'yin va mashqlardan muntazam foydalanishi;
- har bir o'quvchining psixologik va til darajasiga mos yondashuvni qo'llashi zarur.

Shu asosda, kommunikativ yondashuv va interfaol metodlarni uyg'unlashtirgan o'qitish modeli boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali nutqiy muhit yaratadi va ularning ingliz tilida muloqot qilish kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun dars jarayonida quyidagi shartlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- o'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish;
- o'yinli va vizual mashg'ulotlar orqali tabiiy muloqot muhitini yaratish;

- til o'rganishni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash;
- juftlik va guruhli ishlarni keng qo'llash;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ochiq kommunikatsiyani ta'minlash.

Nazariy jihatdan bu yondashuv Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga hamohang bo'lib, o'quvchi faoliyatini ijtimoiy muloqot orqali rag'batlantirishni ta'minlaydi. ^[8]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ingliz tili darslarida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun interfaol metodlardan keng foydalanish zarur. Boshlang'ich sinflar uchun o'yin, rasm, she'r, qo'shiq, dramatisatsiya kabi muloqotga yo'naltirilgan faoliyatlar tizimini ishlab chiqish tavsiya etiladi. O'qituvchilar malakasini oshirish jarayoniga kommunikativ metodika bo'yicha maxsus modullar kiritilishi lozim. Kelgusida eksperimental tadqiqotlar orqali kommunikativ yondashuvning o'quvchilar til ko'nikmalariga ta'siri empirik tarzda aniqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hymes, D. (1972). On communicative competence. Sociolinguistics.
2. Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge University Press.
3. Mirzaboyeva, D., & Maxsudova, O. (2025). Developing communicative competence of primary school pupils through interactive methods. Universal Publishing Journal.
4. Nurmatova, S. (2023). Creating Pre-, While-, and Post-Reading Activities for Primary Learners. Pedagogics.uz Online Journal, 2(4), 18–22.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
6. Shodmonova, Sh. (2020). Boshlang'ich ta'limda chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent.
7. Xoshimova, N. (2021). Ingliz tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. TDPU nashriyoti.
8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
9. Zarimbetova, G. K. (2025). Technology of forming communicative competence of primary school children by means of gamification. Modern Journal of Studies in Science and Technology, 4(2), 76–85.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.